



UDK:8-1751-82-0

Sevara ATADJANOVA,  
Toshkent davlat transport universiteti  
E-mail: sevaraatadjanova89@gmail.com

Ilmiy rahbar prof. I.Rustamov taqrizi bilan

### XIX ASR AMERIKA SAYOHAT ADABIYOTIDA MAKON, HARAKAT VA SUBYEKTIVLIK

Annotatsiya

Mazkur maqolada XIX asr Amerika sayohat adabiyotida transport vositalarining badiiy va narrativ funksiyalari tahlil qilinadi. Maqola Mark Tven va Genri Jeyms asarlari misolida paroxod, poezd, arava va dengiz kemalarining hikoya dinamikasi, makon tasviri hamda subyektiv idrok shakllanishiga ko'rsatgan ta'sirini yoritishga qaratilgan. Sifat tahliliga asoslangan adabiyotshunoslik metodlari yordamida transport vositalarining estetik, strukturaviy va ramziy ahamiyati aniqlanadi. Harakat vositalari XIX asr Amerika sayohat adabiyotida oddiy texnik unsur emas, balki narrativ ritmi belgilovchi va muallif nigohini shakllantiruvchi markaziy poetik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv sayohat adabiyotini makon, harakat va o'zlikni anglash jarayonlari bilan uzviy bog'liq murakkab madaniy hodisa sifatida qayta talqin qilish imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** Sayohat adabiyoti, transport vositalari, hikoya dinamikasi, makon idroki, narrativ ritm, subyektivlik, modernizatsiya, frontir tajribasi, estetik idrok.

### SPACE, MOVEMENT, AND SUBJECTIVITY IN 19TH-CENTURY AMERICAN TRAVEL LITERATURE

Annotation

This article analyzes the artistic and narrative functions of transport vehicles in 19th-century American travel literature. Using the works of Mark Twain and Henry James as examples, it examines how steamboats, trains, stagecoaches, and sea vessels influenced narrative dynamics, spatial representation, and the formation of subjective perception. Employing literary studies methods based on qualitative analysis, the research identifies the aesthetic, structural, and symbolic significance of transport means. Vehicles in 19th-century American travel literature appear not merely as technical instruments, but as central poetic mechanisms that shape narrative rhythm and the author's perspective. This approach allows for a reinterpretation of travel literature as a complex cultural phenomenon intrinsically linked to space, movement, and self-perception.

**Key words:** Travel literature, transport vehicles, narrative dynamics, spatial perception, narrative rhythm, subjectivity, modernization, frontier experience, aesthetic perception.

### ПРОСТРАНСТВО, ДВИЖЕНИЕ И СУБЪЕКТИВНОСТЬ В АМЕРИКАНСКОЙ ПУТЕВОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XIX ВЕКА

Аннотация

В данной статье анализируются художественные и повествовательные функции транспортных средств в американской литературе путешествий XIX века. На примере произведений Марка Твена и Генри Джеймса рассматривается влияние пароходов, поездов, дилижансов и морских судов на динамику повествования, изображение пространства и формирование субъективного восприятия. С помощью методов литературоведческого анализа на основе качественного исследования выявляется эстетическое, структурное и символическое значение транспортных средств. В литературе путешествий XIX века транспорт выступает не только как технический инструмент, но и как центральный поэтический механизм, формирующий ритм повествования и авторскую перспективу. Такой подход позволяет по-новому интерпретировать литературу путешествий как сложное культурное явление, неразрывно связанное с пространством, движением и самовосприятием.

**Ключевые слова:** Литература путешествий, транспортные средства, динамика повествования, восприятие пространства, повествовательный ритм, субъективность, модернизация, опыт фронта, эстетическое восприятие.

**Kirish.** XIX asr Amerika sayohat adabiyoti milliy madaniy ongning shakllanishi, makon va harakat tushunchalarining qayta talqin qilinishi hamda individual subyektiv tajribaning adabiy ifodasi nuqtai nazaridan alohida ilmiy ahamiyatga ega hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur davr Amerika tarixida hududiy kengayish, g'arbiga siljish (westward expansion), sanoatlashuv va texnologik modernizatsiya jarayonlari bilan xarakterlanadi. Aynan shu jarayonlar insonning makon bilan munosabatini tubdan o'zgartirib, sayohatni oddiy geografik harakatdan murakkab ijtimoiy, estetik va psixologik tajribaga aylantirdi.

Texnologik taraqqiyot, xususan paroxod, temiryo'l, poezd va okean kemalarining jadal rivoji, Amerika jamiyatida makon va vaqt tushunchalarini qayta belgiladi. Agar avval sayohat sekin, mashaqqatli va uzluksiz tajriba sifatida idrok

etilgan bo'lsa, XIX asr o'rtalariga kelib tezlik, masofa va harakat intensivligi keskin oshdi. Bu holat adabiyotda ham o'z aksini topib, sayohat matnlarida yangi narrativ strukturalar, ritmik o'zgarishlar va subyektiv idrok shakllarining paydo bo'lishiga olib keldi. Shu ma'noda, sayohat adabiyoti tarixiy voqelikni qayd etuvchi hujjat sifatidagina iborat bo'lib qolmay, balki modern subyektning makon bilan munosabatini badiiy jihatdan modellashtiruvchi estetik diskursga aylandi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda Adam Hallett, Wolfgang Schivelbusch va boshqa tadqiqotchilarga qaraydigan bo'lsak, transport texnologiyalari inson idroki va kuzatuvchanligiga bevosita ta'sir ko'rsatib, manzaraning ko'rilish usulini tubdan o'zgartirgan. Poezd yoki paroxod kabi vositalar makonni "masofadan turib" idrok etish imkonini yaratib, subyekt va tashqi muhit o'rtasida yangi hissiy va

intellektual masofa hosil qiladi. Manzara endi statik tasvir emas, balki harakat jarayonida uzluksiz o'zgarib boruvchi dinamik hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Shu sababli XIX asr Amerika sayohat adabiyotida transport vositalari oddiy texnik detal yoki fon vazifasini bajarmaydi. Aksincha, ular hikoya tuzilmasini shakllantiruvchi, narrativ ritmni belgilovchi hamda muallif nigohi va estetik pozitsiyasini aniqlovchi muhim poetik elementga aylanadi. Harakat vositasi qanchalik tez yoki sekin bo'lsa, hikoyaning ichki dinamikasi, voqealar ketma-ketligi va tasvir uslubi ham shunga mos ravishda o'zgaradi.

**Adabiyot tahlili.** XIX asr Amerika sayohat adabiyoti so'nggi o'n yilliklarda adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik va tarixiy-narrativ tadqiqotlar kesishmasida faol o'rganilayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Olimlar ushbu janrni milliy identitet, makon tasavvuri va modern subyektivlik shakllanishi bilan bog'liq murakkab madaniy hodisa sifatida talqin qiladilar. Ayniqsa, transport texnologiyalarining adabiy matndagi o'rni masalasi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda alohida e'tibor qozongan.

Sayohat va makon munosabatini tahlil qilishda Mary Louise Prattning *Imperial Eyes: Travel Writing and Transculturation* [12] asari muhim nazariy manba hisoblanadi. Pratt sayohat matnlarini "kontakt zonalarini" sifatida talqin qilib, unda subyekt va makon o'rtasidagi hokimiyat, kuzatuv va tasvir munosabatlarini ochib beradi. Garchi uning tadqiqoti asosan imperiya va mustamlaka kontekstiga qaratilgan bo'lsa-da, Pratt ilgari surgan nazariy qarashlar Amerika sayohat adabiyotidagi makon va nigoh masalasini tahlil qilishda samarali metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Transport texnologiyalarining idrok va estetikaga ta'siri masalasida Wolfgang Schivelbuschning *The Railway Journey: The Industrialization of Time and Space in the 19th Century* [13] asari fundamental tadqiqot sifatida e'tirof etiladi. Schivelbusch poezd safarining inson idrokida makon va vaqtni mexanizatsiyalashgan, fragmentar tajribaga aylantirganini ta'kidlaydi. Uning qarashlari Genri Jeymsning *The American Scene* [6] asaridagi poezd tasvirlarini tahlil qilishda muhim nazariy tayanch vazifasini bajaradi, chunki Jeyms matnlarida tezlik va uzluksizlikning buzilishi subyektiv ongning fragmentatsiyasi bilan chambarchas bog'liq.

Amerika adabiyotida daryo va paroxod timsolini o'rganishda Leo Marx [8] va Shelley Fisher Fishkin [3] tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Xususan, Leo Marxning texnologiya va pastoral ideal o'rtasidagi ziddiyat haqidagi qarashlari Mark Tvenning *Life on the Mississippi* [14] asarini tahlil qilishda dolzarb hisoblanadi. Fishkin esa Tven ijodida professional tajriba va estetik idrok o'rtasidagi murakkab munosabatni ko'rsatib, paroxodchilik tajribasining muallif nigohini qanday o'zgartirganini ilmiy asosda yoritadi.

Mark Tvenning sayohat asarlarida ham keng qamrovidir. Justin Kaplan, Ron Powers va James M. Cox [7.11.17] kabi adabiyotshunoslar *Roughing It* va *The Innocents Abroad* asarlarini Amerika frontiri, milliy hazil va sayohat tajribasining demokratik talqini bilan bog'laydilar. Ularning ishlarida arava va kema safari G'arbi zabt etish va chet el bilan ilk ommaviy tanishuv ramzi sifatida talqin qilinadi, biroq transport vositalarining narrativ dinamika bilan bevosita aloqasi masalasi ko'pincha ikkilamchi darajada qoladi.

Genri Jeyms ijodini tahlil qilganlar, jumladan Michael Imbert, Sara Blair va Ross Posnock, [5.1.10] *The American Scene* asarini modern subyektivlik va makon inqirozi bilan bog'laydilar. Imbert Jeymsning poezdda safar tajribasini ong oqimi va fragmentar idrok bilan izohlaydi, bu esa transport vositasining nafaqat fon, balki subyektiv tafakkur mexanizmi sifatidagi rolini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv mazkur maqola uchun muhim nazariy asos vazifasini bajaradi.

Shu bilan birga, transport vositalarining XIX asr Amerika sayohat adabiyotida hikoya dinamikasi, narrativ ritm va strukturaviy qurilma bilan tizimli bog'liqligi masalasi hali yetarli darajada kompleks tarzda o'rganilmagan. Aksariyat nazariy ishlar alohida muallif yoki texnologiya turiga e'tibor qaratadi, biroq turli transport vositalarining qiyosiy va integrativ tahlili kam uchraydi.

Usul. Biz asosiy e'tiborni XIX asr Amerika sayohat adabiyotida transport vositalarining badiiy va narrativ funksiyalarini aniqlashga qaratib, matn va kontekst o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib berishni maqsad qildik. Shu bois ishimizda bir-birini to'ldiruvchi bir nechta metodologik yondashuvlar qo'llanildi.

Birinchi navbatda, yaqin matn tahlili (close reading) metodidan foydalanildi. Ushbu metod orqali Mark Tvenning *Life on the Mississippi*, *Roughing It*, *The Innocents Abroad* [14.15.16] hamda Genri Jeymsning *The American Scene* [6] asarlarida transport vositalarining tasviri, ular bilan bog'liq leksik birliklar, metaforalar va narrativ strategiyalar batafsil tahlil qilindi. Yaqin matn tahlili transport vositalarining faqat syujet rivojidadagi rolini emas, balki muallif nigohi, hikoya ohangi va estetik idrok shakllanishidagi funksiyasini aniqlash imkonini berdi.

Ikkinchi metod sifatida kontekstual tahlil qo'llanildi. Bu yondashuv doirasida XIX asr Amerika ijtimoiy-tarixiy sharoiti, xususan hududiy kengayish, sanoatlashuv va transport texnologiyalarining rivoji hisobga olindi. Transport vositalarining adabiy matnda qanday talqin qilinishi real tarixiy tajriba va zamon ruhiga qanday bog'liq ekanini aniqlash uchun tarixiy manbalar va adabiy an'analar bilan qiyosiy yondashuv amalga oshirildi.

Shuningdek, ish jarayonida nazariy yondashuv muhim o'rin tutdi. Makon, harakat va subyektivlik munosabatiga oid zamonaviy adabiyotshunoslik konsepsiyalari, jumladan texnologiya va idrok o'rtasidagi munosabatni tahlil qiluvchi nazariy qarashlar asos qilib olindi. Ushbu yondashuv transport vositalarining makonni idrok etish usullarini qanday o'zgartirganini hamda bu jarayon narrativ struktura va subyektiv tajribada qanday aks etganini tushuntirishga xizmat qildi.

Keltirilgan usullar majmuasi orqali transport vositalarining XIX asr Amerika sayohat adabiyotida hikoya strukturasidagi funksional (ritm, tezlik, voqealar ketma-ketligi) va ramziy (taraqqiyot, frontir, kashfiyot, modern subyektivlik) vazifalari tizimli ravishda aniqlanib, ularning badiiy matndagi ahamiyati ilmiy asosda yoritildi.

Natija. XIX asr Amerika sayohat adabiyotida transport vositalari hikoya dinamikasini belgilovchi ikkilamchi unsur emas, balki narrativ tuzilma, estetik idrok va subyektiv tajriba shakllanishida markaziy omil sifatida namoyon bo'ladi. Har bir transport turi o'ziga xos harakat rejimi, tezlik va makon tajribasini yaratib, matnning ichki ritmi va mazmunini yo'nalishini bevosita belgilaydi.

Birinchiidan, paroxod Mark Tvenning *Life on the Mississippi* [14] asarida daryo makonini idrok etish va talqin qilishning asosiy vositasiga aylanadi. Asar boshida Mississippi daryosi muallif tomonidan estetik va romantik manzara sifatida qabul qilinadi. Biroq paroxod boshqaruvi sirlarini egallash jarayonida daryo vizual go'zallikdan ko'ra texnik belgilar tizimi sifatida anglana boshlaydi. Suv sathidagi mayda o'zgarishlar, burilishlar va rang farqlari navigatsion axborot manbaiga aylanib, hikoya ohangining lirik tasvirdan professional va analitik bayonga siljishiga olib keladi. Paroxodning tezligi va harakat rejimi esa voqealarning keskinligi yoki sokinligini belgilab, hikoya dinamikasini daryo ritmiga mos ravishda shakllantiradi.

Ikkinchiidan, poezd Genri Jeymsning *The American Scene* [6] asarida fragmentar va uzlukli narrativ tuzilmaning shakllanishiga sabab bo'ladi. Poezd harakati natijasida

manzaralar tez va ketma-ket almashib, makon uzluksiz yaxlit hodisa sifatida emas, balki bo'laklangan vizual segmentlar majmui sifatida idrok etiladi. Ushbu fragmentatsiya tashqi makonda uzilish hosil qilsa-da, muallif ongining uzluksiz tafakkur oqimi bu bo'laklarni ichki mantiq va refleksiya orqali birlashtiradi.

Uchinchidan, arava (dilijsans) Mark Tvenning *Roughing It* [15] asarida sekinlik, mashaqqat va jismoniy bardoshlilik ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Arava safari bosqichma-bosqich rivojlanadigan narrativ tuzilmani yuzaga keltirib, G'arbiy chegarani kesib o'tish jarayonini real va tajribaviy hodisa sifatida aks ettiradi. Sekin harakat hikoyaga voqealar ketma-ketligini batafsil tasvirlash, kundalik holatlar, hazil va sarguzasht elementlarini keng kiritish imkonini beradi.

To'rtinchidan, dengiz va okean kemalari (*The Innocents Abroad*, shuningdek Herman Melvill va Richard Dana Jr. memuarlari) hikoyaga uzluksiz va meditatif ritm bag'ishlaydi. Kemaning yopiq va cheklangan muhiti, uzoq davom etuvchi harakat hamda okean makonining cheksizligi muallifni tashqi voqelikdan ko'ra ichki mushohada va refleksiya yo'naltiradi. Bunday sharoitda sayohat geografik harakatdan ko'ra kashfiyot va o'zlikni anglash jarayoniga aylanib, hikoyaning semantik chuqurligini oshiradi.

Transport vositalari XIX asr Amerika sayohat adabiyotida hikoya ritmi, makon tasviri va subyektiv tajribani shakllantiruvchi asosiy strukturaviy unsur bo'lib xizmat qiladi. Har bir transport turi o'ziga xos narrativ strategiyani yuzaga keltirib, mualliflarning estetik va falsafiy qarashlarini ifodalashda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

**Muhokama.** XIX asr Amerika sayohat adabiyotida transport vositalari faqat makondan makonga ko'chishni ta'minlovchi texnik vosita sifatida emas, balki hikoya qilish uslubi, estetik idrok va subyektivlik shakllanishini belgilovchi asosiy adabiy mexanizm sifatida faoliyat yuritadi. Harakat vositasi bilan bog'liq tezlik, ritm va jismoniy tajriba muallifning makonni qanday ko'rishi, tasvirlashi va talqin qilishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, natijada har bir transport turi o'ziga xos narrativ struktura va metaforik yukni yuzaga keltiradi.

Paroxod misolida daryo sivilizatsiyasi va kasbiy nigohning shakllanishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Mark Tven asarlarida paroxod muallifni romantik tomoshabindan professional kuzatuvchiga aylantiradi. Daryo endi faqat go'zal manzara emas, balki o'qilishi, talqin qilinishi va nazorat qilinishi lozim bo'lgan murakkab belgilar tizimiga aylanadi. Bu holat hikoya uslubining lirik tasvirdan analitik va texnik bayonga o'tishiga olib kelib, estetik idrokning yo'qotilishi va kasbiy ongning ustuvor bo'lishi muammosini ochib beradi. Shu tariqa paroxod nafaqat transport vositasi, balki subyektivlikning yangi shaklini yuzaga chiqaruvchi epistemologik vosita sifatida ishlaydi.

Poezd esa modernizatsiya va tezlik bilan bog'liq tajribani ifodalaydi. Genri Jeyms asarlarida poezd harakati natijasida makon uzluksiz va yaxlit hodisa sifatida emas, balki bo'laklangan, tez almashinuvchi fragmentlar majmui sifatida idrok etiladi. Bu fragmentatsiya zamonaviy ongning bo'linuvchanligini, diqqatning tarqoqlashuvini va idrokning mexanizatsiyalashuvini aks ettiradi. Shu bilan birga, muallif tafakkuri ushbu bo'laklarni ichki refleksiya orqali birlashtirib, poezdni subyektiv tafakkur faoliyatini namoyon qiluvchi makonga aylantiradi. Poezd zamonaviylikning estetik va

psixologik murakkabligini ifodalovchi markaziy metafora vazifasini bajaradi.

Arava (dilijsans) esa frontir tajribasining jismoniy va mashaqqatli mohiyatini ochib beradi. Sekinlik, noqulaylik va xavf bilan kechadigan arava safari Mark Tvenning *Roughing It* asarida bosqichma-bosqich rivojlanadigan hikoya tuzilmasini yuzaga keltiradi. Bu transport turi makonni uzoq vaqt davomida jismonan his qilish imkonini berib, sayohatni sarguzasht, mehnat va moslashuv jarayoni sifatida tasvirlaydi. Arava shu tariqa Amerikaning g'arbga intilishi, jasorati va chidamliligi bilan bog'liq milliy mifologiyaning muhim ramziga aylanadi.

Dengiz va okean kemalari esa uzoq safar, izolyatsiya va kashfiyot g'oyalari ifodalaydi. Kemaning yopiq muhiti va okean makonining cheksizligi sayohatchini tashqi voqelikdan ichki mushohada sari yo'naltiradi. Bu holatda sayohat geografik harakatdan ko'ra falsafiy va ekzistensial tajribaga aylanadi. Dengiz safarlari aks etgan asarlarda hikoya ritmi sekinlashib, reflektiv va meditatif tus oladi, bu esa o'zlikni anglash jarayonining chuqurlashuviga xizmat qiladi.

XIX asr Amerika sayohat adabiyotida transport vositalari hikoyaning tashqi fonigina emas, balki uning ichki mexanizmini tashkil etuvchi strukturaviy va semantik unsurlar sifatida namoyon bo'ladi. Ular makon, harakat va subyektiv idrokni yagona poetik tizimga birlashtirib, sayohat matnlarini ko'p qatlamli, estetik va falsafiy jihatdan murakkab adabiy hodisaga aylantiradi. Shu jihatdan, transport vositalari orqali mualliflar milliy ruh, zamon ruhi va individual tajribani bir butun holda ifodalashga muvaffaq bo'lgan.

**Xulosa.** Paroxod, poezd, arava va dengiz kemalari sayohat matnlarida faqat harakatni ta'minlovchi texnik vositalar emas, balki hikoya dinamikasi, estetik idrok va muallif nigohini shakllantiruvchi markaziy poetik unsurlar sifatida faoliyat yuritadi.

Paroxod Mark Tven ijodida daryo sivilizatsiyasi va kasbiy ongning shakllanishini ifodalab, romantik estetik nigohdan analitik va professional idrokka o'tish jarayonini namoyon etadi. Poezd Genri Jeyms asarlarida modernizatsiya, tezlik va makon fragmentatsiyasi bilan bog'liq tajribani aks ettirib, zamonaviy subyektivlikning murakkab va bo'linuvchan tabiatini ochib beradi. Arava safari esa Amerikaning g'arbga kengayish tajribasini jismoniy, mashaqqatli va bosqichma-bosqich jarayon sifatida tasvirlab, frontir mifologiyasining adabiy ifodasiga aylanadi. Dengiz va okean kemalari uzoq safar, izolyatsiya va kashfiyot g'oyalari mujassam etib, sayohatni ekzistensial va reflektiv tajribaga aylantiradi.

Har bir transport turi o'ziga xos narrativ ritm va metaforik yukni olib kelib, hikoya tuzilmasi va mazmunini bevosita belgilaydi. Shu orqali mualliflar milliy ruh, zamon ruhi va individual tajribani bir butun poetik tizim doirasida ifodalashga erishganlar. Transport vositalari makon, harakat va o'zlikni anglashni yagona estetik va semantik makonda birlashtiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

XIX asr Amerika sayohat adabiyotida harakat vositalari hikoyaning tashqi fonigina emas, balki uning ichki strukturasi va ma'no ishlab chiqarish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu yondashuv sayohat adabiyotini nafaqat tarixiy yoki geografik tajriba sifatida, balki modern adabiy ong va subyektivlik shakllanishini aks ettiruvchi murakkab madaniy hodisa sifatida qayta baholash imkonini beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Blair S. Henry James and Modernity: Urban Space and Travel in The American Scene. — New York: Palgrave Macmillan, 2006.
2. Dana R.H., Jr. Two Years Before the Mast. — New York: Harper & Brothers, 1840.
3. Fishkin S.F. Was Huck Black? Mark Twain and African-American Voices. — New York: Oxford University Press, 1993.
4. Hallett A. The Senses in American Travel Writing. — London: Routledge, 2014.

5. Imbert M. *Henry James and the American Scene: Travel, Writing, and Modernity.* — Paris: Presses Universitaires de France, 2007.
6. James H. *The American Scene.* — New York: Harper & Brothers, 1907.
7. Kaplan J. *Mr. Clemens and Mark Twain.* — New York: Simon & Schuster, 1966.
8. Marx L. *The Machine in the Garden: Technology and the Pastoral Ideal in America.* — New York: Oxford University Press, 1964.
9. Melville H. *Typee: A Peep at Polynesian Life.* — New York: Wiley & Putnam, 1846.
10. Posnock R. *Henry James and the Modern Subject.* — Cambridge: Cambridge University Press, 1991.
11. Powers R. *Mark Twain: A Life.* — New York: Free Press, 2005.
12. Pratt M. L. *Imperial Eyes: Travel Writing and Transculturation.* — London: Routledge, 1992.
13. Schivelbusch W. *The Railway Journey: The Industrialization of Time and Space in the Nineteenth Century.* — Berkeley: University of California Press, 1986.
14. Twain M. *Life on the Mississippi.* — Boston: James R. Osgood and Company, 1883.
15. Twain M. *Roughing It.* — Hartford: American Publishing Company, 1872.
16. Twain M. *The Innocents Abroad.* — Hartford: American Publishing Company, 1869.
17. Cox J.M. *Mark Twain: The Fate of Humor.* — Princeton: Princeton University Press, 1966.